



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

JADIDCHILAR TA'LIMOTIDA VATANPARVARLIK TARBIYASI

Almuratova Gulbaxor Mansur qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid mutafakkirlarining vatanparvarlik tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidchilik ta'limotida vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni hamda uning zamonaviy ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik ta'limoti, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy tarbiya, ma'rifatparvarlik, milliy ong, yoshlar tarbiyasi, jadid pedagogikasi.

ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В УЧЕНИИ ДЖАДИДОВ

Алмуратова Гулбахор Мансур кизи

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант 2 курса

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические взгляды джадидских мыслителей на патриотическое воспитание. Также раскрывается сущность патриотического воспитания в джадидском учении и его значение в современной системе образования и воспитания.

Ключевые слова: джадидское учение, патриотическое воспитание, национальное воспитание, просветительство, национальное сознание, воспитание молодежи, джадидская педагогика.

PATRIOTIC EDUCATION IN THE DOCTRINE OF JADIDISM

Almuratova Gulbaxor Mansur qizi

Jizzakh State Pedagogical University, 2nd-year Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the pedagogical views of Jadid thinkers on patriotic education. It also reveals the essence of patriotic education within the Jadid educational doctrine and highlights its significance in contemporary educational and moral upbringing.

Keywords: Jadid educational doctrine, patriotic education, national education, enlightenment, national consciousness, youth education, Jadid pedagogy.

Bugungi kunda yoshlarni Vatan ravnaqi va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim masala hisoblanadi. Jaholat va bilim yetishmovchiligi millatning taraqqiyotiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, jadid mutafakkirlari qarashlarida shakllangan vatanparvarlik tarbiyasi g'oyalari hozirgi ma'naviy-axloqiy ta'lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan tarbiyaviy meros yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarning ma'naviy intellektual jihatdan rivojlanishi uchun pedagogik asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 12 maydagi PQ- 3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risidagi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi №1059-son qarorlarida

ajdodlarimiz merosini yosh avlod tarbiyasiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini o'rganish va mazkur merosni o'quvchilarni tarbiyalashda foydalanish zarurati alohida takidlangan edi.

Ta'limot (arab. ta'lim-ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar, formoyishlar) 1) fan sohalari, ijtimoiy hayot, jamiyat va sh. k. haqidagi ilmiy qarashlar, nazariy xulosalar majmui; nazariya; 2) ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuvdir [7;208]. Shu nuqtai nazardan, jadidchilik ta'limoti yoshlarni bilim egallash va ma'rifatga yo'naltirish orqali ularning Vatan tushunchasiga hurmat va sadoqat ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. Vatanparvarlik bo'lsa (yunoncha. patriotes-vatandosh, patris-vatan)- tug'ilib o'sgan yurt, vatanga muhabbat, sadoqat, o'z xatti-harakatlari bilan uning ravnaqi uchun xizmat qilishdir. Insondagi vatanparvarlik uch yo'nalishda nomoyon bo'ladi.

- 1) bilish - Vatan tushunchasiga xos qadriyatni egallash;
- 2) e'tiqod-qadriyatlar asosida o'zlashtirilgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish;
- 3) harakat-o'z e'tiqodini amaliy faoliyat orqali ifodalash. [6;188]

Shu tarzda, ta'limot va vatanparvarlik bir-birini to'ldiradi va yoshlarni ilm-ma'rifatli, sadoqatli va Vatan ravnaqi yo'lida faol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim vosita bo'ladi. Vatanparvarlik ona Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishishdir. Vatanparvarlik - o'zbek xalqining madaniy merosi, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilishni ham o'z ichiga oladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi - oila va ta'lim muassasalarida bolalar, talabalarni o'z yurti va ona Vataniga muhabbatini va sadoqatli qilib tarbiyalash. Vatanga muhabbat, uni qadrlash hissi shu zaminda yashayotgan har bir fuqoroning qalbi va ongiga singdirilishi kerak. Vatanparvarlik tarbiyasining asosini badiiy adabiyotlar, ona tili boyliklari, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari tashkil etishini har bitta pedagog yaxshi bilishi lozim. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda talaba yoshlarni ona-Vatanga muhabbat, uni sevishtirish e'zozlashga o'rgatish; o'zbek xalqining an'analari, udumlari, tili va ma'daniyatiga hurmat bilan qarashga undash; buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy me'rosni asrab-avaylash va qunt bilan o'rganishga odatlantirish; yoshlarni sog'lom dunyoqarash tafakkur, imon e'tiqodni tarkib toptirish; Vatan oldidagi mas'uliyatni his etish, milliy manfaatlar yo'lida kurashishning mohiyatini chuqur anglashlariga ko'maklashish kabilarga alohida e'tibor qaratish ta'lab etiladi.[6;189]

Vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim qismi ta'lim oluvchilarni jahon miqyosida sport, san'at, ilm-fan, sohasida erishgan yutuqlardan g'ururlanishga o'rgatishdir. Vatanparvarlik haqida gap ketgudek bo'lsa, asosan harbiylar tushuniladi, hattoki bu mavzudagi teleko'rsatuvlarda ham harbiylar ko'rsatiladi. Go'yoki vatanparvar inson harbiy bo'lishi shartdek, boshqalarga buning daxli yo'qdek. Aslida vatanparvarlik har birimizning yuragimizda, qalbimizda bo'lishi kerak emasmi? Kim bo'lishimizdan, qayerda, qaysi lavozimda bo'lishimizdan qat'iy nazar, vatan himoyasi uchun chaqiriq bo'lganida safning birinchi qatorida turishimiz lozim emasmi? Xo'sh, bugungi yoshlarimiz ana shunday chaqiriqqa, vatan himoyasiga tayyormi? Shunday ekan biz avvalo maqsadni belgilab olishimiz kerak. Maqsadimiz o'tmishimiz bilan faxrlanadigan, ajdodlarimizga munosib avlodni yaratishimiz kerak.

Jadid ma'rifatparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida Vatan, millat va ma'rifat tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Jadid ma'rifatparvarlari orasida alohida o'rin tutgan Mahmudxo'ja Behbudiy yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishni eng muhim vazifalardan biri deb hisoblagan. Uning pedagogik qarashlarida vatanparvarlik tarbiyaning asosiy poydevori sifatida talqin qilinadi. Behbudiy o'z maqolalari va pedagogik asarlarida Vatan tushunchasini millat hayoti bilan chambarchas bog'lab izohlaydi. Unga ko'ra, Vatan millatning mavjudligi va davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas qadriyatdir. Shu bois Vatanga muhabbat aslida millatga bo'lgan muhabbatning ifodasidir.

Mutafakkir yoshlar qalbida Vatanga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish

zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, agar yosh avlod qalbida Vatan sevgisi qaror topmasa, millat kelajagi ham xavf ostida qoladi. Shu sababli u maktab va madrasalarda ta'limni yangi usullar asosida tashkil etish, yoshlarni milliy ong va milliy g'urur ruhida tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Behbudiy fikricha, vatanparvarlik faqat shior yoki tuyg'u emas, balki ilm va ma'rifat bilan boyitilishi zarur. U o'z maqolalarida

“Maktab -millatning qalasi”

“Ilm – maktab uchun xizmat vositasi”

“Ma'rifat- millatni ozod qiladigan kuch” degan g'oyalarni ilgari surgan [3;137]

Chunki ma'rifatli va bilimli inson jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan haqiqiy vatanparvar shaxs bo'lib yetishadi.

Abdurauf Fitrat o'z asarlarida millat taraqqiyoti va yoshlar tarbiyasini o'zaro uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Uning fikricha, jamiyat rivoji avvalo yosh avlodning ilm-ma'rifatga intilishi va Vatan taqdiriga mas'uliyat bilan qarashiga bog'liq. Fitrat yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni milliy uyg'onishning asosiy shartlaridan biri sifatida ko'radi.

Fitrat qarashlariga ko'ra, vatanparvarlik faqat hissiy tuyg'u bilan cheklanmaydi, balki u ilm-ma'rifat, tafakkur va ijtimoiy faollik bilan mustahkamlanadi. Uning ta'kidlashicha, yoshlar qalbida eng avvalo Vatanni sevis, uni taraqqiy etgan va obod holda ko'rish istagi shakllanishi zarur. Bunday tarbiya milliy o'zlikni anglashni kuchaytirib, yoshlarni xalq manfaatlarini yo'lida xizmat qilishga undaydi. Shu bois Fitrat yoshlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallashga, boshqa xalqlar tajribasini o'rganishga va o'z bilimini millat ravnaqi yo'lida safarbar etishga da'vat etadi.

Fitratning qarashlari vatanparvarlik ozodlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq holda ifodalangan. U yoshlarni millatning mustaqilligi uchun fidoyilikka chaqiradi. “Rahbari najot” asarida Fitrat xalqni qutqaradigan kuch – bu yoshlarning ma'rifati va vatan uchun fidoiyligidir, deya ta'kidlangan:

“Bizni najotga chiqaradigan rahbar- ilm va yoshlarning vatan uchun kurashidir” degan [3;140]. Bu fikr yosh avlodning ilm-ma'rifatli bo'lishi va Vatan taqdiriga befarq bo'lmasligi zarurligini anglatadi. Chunki millat taraqqiyoti, avvalo, bilimli va vatanparvar yoshlar faoliyatiga bog'liq. Shu bois jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat yoshlarni ilm egallashga va Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishga chorlab, buni millat najotining muhim omili sifatida baholagan.

Jadid pedagogikasida vatanparvarlik tarbiyasi masalasini chuqur yoritgan mutafakkirlardan yana biri Abdulla Avloniydir. U yosh avlodni millat kelajagini belgilovchi asosiy kuch sifatida baholaydi. Avloniy fikricha, vatanparvarlik tuyg'ulari inson qalbida bolalik davridan boshlab shakllanishi lozim. Bunda oila, ayniqsa ona tarbiyasi, shuningdek maktabdagi ta'lim muhim o'rin tutadi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq ” asari o'zbek xalqining tafakkurini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Avloniy tarbiyani “hayot va mamot masalasi” deb baholab yoshlar ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishni tarbiyaning eng muhim vazifasi deb bilgan. Avloniy o'z asarida shunday yozgan “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” [5;5] degan. Bu fikrlar talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Avloniy uchun vatanparvarlik millat yoshlarining kelajagi, kamol topishi va yashashi uchun xizmat qiladigan oliy tuyg'u sifatida baholaydi. Bundan tashqari avloniy ta'lim tarbiyani millat mustaqilligi va baxt saodatining asosiy omili sifatida baholagan. U bu haqda quyidagicha yozadi: “Jaholatda qolgan millat hech qachon o'z vatanini himoya qila olmaydi” Chunki haqiqiy vatanparvarlik ilm-ma'rifat va milliy ong bilan shakllanadi.[3;141]

Jadidlarning vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limotini talabalarga yetkazishda nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhimdir. Shu maqsadda darslarda Behbudiy, Fitrat va Avloniy qarashlari talabalarga tushuntirilib, tarixiy va badiiy manbalar tahlil qilinadi. Talabalar interfaol muhokama, savol-javob, loyihalar va tadqiqot ishlari orqali Vatan ravnaqi va milliy

qadriyatlar haqida fikr yuritishni o'rganadilar. Shuningdek, guruh mashqlari, ijtimoiy loyihalar va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida ilm-ma'rifat va vatanparvarlik g'oyalari amaliyot bilan mustahkamlaydilar. Natijada, talabalarda Vatanga sadoqat, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat ruhida yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga imkon yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jadidlarning eng yorqin vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy asarlarida ilm-ma'rifat, milliy g'urur va fidoyilik tuyg'ulari vatanparvarlik tarbiyasining muhim omillari sifatida talqin etiladi. Ularning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni Vatanga sadoqat, ma'naviy yetuklik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 12 maydagi PQ- 3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida" gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi №1059-son Qarori
3. Safarova R.G. Mutafakkir va jadidlarning konseptual qarashlari asosida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid yondashuvlar. Monografiya. Science and innvation nashriyoti .Toshkent .-2025 y 136-143 -betlar
4. Qosimov. B. Jadidlar harakati va o'zbek milliy uyg'onishi. Toshkent: Ma'naviyat. 2008 y
5. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". Wwww .ziyouz.com kutubxonasi. 5-b.
6. Pedagogika: ensiklopediya. I jild tuzuvchilar: jamoa - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.188-190-betlar
7. Pedagogika: ensiklopediya. III jild tuzuvchilar: jamoa - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 208-bet
8. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Tanlangan asarlar"//T.: "Ma'naviyat " nashriyoti, 2009.
9. Abdurauf Fitrat .Tanlangan asarlar // 2jild Ilmiy asarlar /-T.: "Ma'naviyat", 2000-208 b.